

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARGA UYDA YAKKA TARTIBDA
TA'LIM BERISH**

Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun uyda ta'lismi tashkil etish va samaradorligini eksperimental tekshirish, imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun individual ta'lim yo'nalishini tashkil etish, nogiron o'quvchilarni uyda o'qitish jarayonida psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, ularni uy sharoitida o'qitishni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Imkoniyati cheklangan, nogiron, ta'lim berish, uy ta'limi, yakka tartibda, psixologik, qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va Sog'lijni saqlash vazirligining "Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2015-yil 30-iyunda 2691-son bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilgan qaroriga asosan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishlari tashkil etiladi. [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturlarida ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bir qator qo'shimcha kafolatlar belgilandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 fevralda matbuotda e'lon qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham bu borada katta ahamiyat kasb etadi.[2]

Qarordan ko'zlangan maqsad:

birinchidan, inson huquqlari, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash;

ikkinchidan, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlari teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish;

uchinchidan, imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtiroy etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860 son "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, Bunda jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibini belgilaydi. Uyda yakka tartibda ta'lim berish o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda ularning ta'lim olishlari uchun zarur sharoit yaratish asosiy maqsadi ekanligi ko'rsatilgan.[3] O'zbekistonda uy ta'limi L.Nurmuxamedovaning "Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqotida hamda M.X.Jo'raxo'jayevning "Imkoniyati cheklangan bolalarning uyda yakka tartibdagisi ta'limi samaradorligini oshirish mexanizmlari" mavzusidagi tadqiqotilarida tadqiq etilgan.

Uyda yakka tartibda ta'lim olish jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, uzoq vaqt davolanishga muhtoj va tibbiy ko'rsatmalarga ko'ra doimiy yoki vaqtincha umumiy o'rta ta'lim mакtablariga qatnay olmaydigan o'quvchilar uchun tashkil etiladi. O'quvchilarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida maktabning tegishli sinfida o'qiyotgan bolalardan ikki yosha oshgan o'quvchilarni ham ushbu sinfda uyda yakka tartibda ta'lim olishga jalb qilishga ruxsat etilgan. Uyda yakka tartibda ta'lim berishning asosiy maqsadi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda ularning ta'lim olishlari uchun zarur sharoit yaratishdan iborat.

Uyda yakka tartibda ta'lim berishning asosiy vazifalari esa quyidagilar hisoblanadi:
o'quvchilarning umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan (aqli zaif bolalar uchun) maxsus ta'lim talablariga muvofiq bilim olishlarini ta'minlash; barkamol, jismonan va ma'naviy sog'lom shaxsni voyaga yetkazish, o'quvchilarda madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni, fuqarolik va vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
ta'lim berish jarayonida o'quvchilarning sog'lig'ini himoyalovchi dars jadvaliga rioya etilishini ta'minlash.

O'quvchilarning uyda yakka tartibda ta'lim olishini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2015-yil 10-iyundagi "Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga (30.06.2015-yil, 2691-son bilan ro'yxatdan o'tgan) asosan tashkil etiladi. [3] Bunda mакtab direktorlari mакtab joylashgan hududda yashaydigan o'quvchilarni aniqlaydilar, ro'yxatga oladilar hamda ularni uyda yakka tartibda ta'lim olish uchun jalb qilish chora-tadbirlarini ko'radilar.O'quvchini uyda yakka tartibda ta'lim olishini belgilash uning doimiy yashash joyidagi tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiy-maslahat komissiyasining tibbiy xulosasiga asosan tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.O'quv rejasidagi haftalik soatlar miqdori 1-4-sinflar uchun 8 soat, 5-9-sinflar uchun 10 soat, 10-11 sinflar uchun 12 soatni tashkil qiladi. Dars jadvali mакtab tomonidan o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, ota-onalar bilan kelishgan holda ishlab chiqiladi hamda mакtab direktori tomonidan tasdiqlanadi. Dars jadvali haftasiga kamida uch kunga moslab tuziladi. O'quvchining qiziqishi va qobiliyatini hisobga olib, ota-onalarning arizasiga muvofiq o'quv rejada ko'rsatilgan fanlarni umumiy soatlar miqdoridan oshmagan holda 1 soatga o'zgartirishga yo'l qo'yish mumkin. Bunday o'zgartirish mакtab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quv rejadagi bitta fanni boshqa bir fan bilan almashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berish mакtabning o'quv dasturi, psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berish esa aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv dasturi asosida tashkil etiladi. Dars soatining davomiyligi jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun 45 daqiqa, psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun 40 daqiqadan iborat bo'ladi. Dars mashg'ulotlarida o'quvchining olgan baholari baholash daftariga qayd etib boriladi. Baholash daftari har bir fan bo'yicha alohida yuritiladi. O'quvchining baholash daftariga qo'yilgan baholar o'quvchi ro'yxatda turgan mакtabning sinf jurnaliga ko'chirib boriladi. Ota-onalar tomonidan baholash daftariga o'qituvchilar tomonidan dars mashg'ulotlari o'tkazilganligini tasdiqllovchi imzo qo'yiladi. O'quvchining baholash daftari o'qituvchida saqlanadi va o'quv yili oxirida boshqa hisobotlar bilan birgalikda mакtab rahbariyatiga taqdim etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va Sog'liqni saqlash vazirligining "Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563 2024: 7,805

eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 11, issue 04 (2024)

yakka tartibda ta'lim olishlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 2015-yil 30-iyunda 2691-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023 yil 27 fevraldagi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohiba ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860 son qarori// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021-yil 12-oktabr, 638-son.

4. Попова, Людмила Григорьевна. Социально-педагогическое сопровождения формирования социальной адаптивности подростков, обучающихся на дому, в условиях учреждения социального обслуживания семьи и детей: дис... кандидат педагогических наук. Москва. 2009. 246 с.

5. Mirzaev, O. (2022). THE ROLE OF ETHICS AND AESTHETICS IN THE FORMATION OF ENTREPRENEURIAL RELATIONS BETWEEN INDIVIDUALS. Science and innovation, 1(B6), 125-130.

6. Nargiza, Q. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARIDA LOGOPED ISHINING OLIB BORILISHI. PEDAGOGS jurnali, 22(2), 52-54.

7. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР УЙДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 295-298.

8. Jo‘raxo‘jayev M.X., Imkoniyati cheklangan bolalarning uyda yakka tartibdagilari ta’limi samaradorligini oshirish mexanizmlari: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Jizzax – 2023. – 36-bet.

9. Jo‘raxo‘jayev M.X. Uyda yakka tartibdagilari ta’lim o‘qituvchisining portreti / “Tilni o‘qitish va o‘rganishda XXI asr ko‘nikmalari” III xalqaro anjuman materiallari. – Jizzax, 2022. – B. 319-325.

10. Мирзаев, О. Х. (2020). Воспитание профессионально-нравственных качеств у будущих молодых фермеров средствами отечественной литературы. Science and Education, 1(2), 508-513.

11. Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. JournalNX, 1, 265.

12. Khalilkhoja, D. M. (2022, March). PROBLEMS AND SOLUTIONS OF HOME INDIVIDUAL EDUCATORS. In Conference Zone (pp. 315-318).

13. Azimova, Z. E., & KHASANOVA, G. THE WAY OF SCIENCE. THE WAY OF SCIENCE Учредители: Издательство Научное обозрение, (6), 58-59.

14. Азимова, З. Э., & Муллаахунова, Н. М. (2023). РАЗВИТИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ 6 КЛАССА УЗБЕКСКИХ ШКОЛ СРЕДСТВАМИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 638-641.

15. Азимова, З. Э. (2018). Олий ўқув муассасаси маънавий-маърифий ишларининг педагогик назария ва амалиётда тутган ўрни. Современное образование (Узбекистан), (2), 26-35.

16. Gulhayo, M. (2023). TECHNOLOGIES FOR DEVELOPMENT OF GENERAL COMPETENCES OF PRESCHOOL TEACHERS. Science and innovation, 2(B4), 632-634.

17. Mominova, G. (2023). MAKTABGACHA TALIM TASHKIOTLARI TARBIYACHILARINING UMUMMADANIY KOMPOTENSIYALARINI

**INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR
RESEARCH & DEVELOPMENT**

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563 2024: 7,805
eISSN :2394-6334 https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd Volume 11, issue 04 (2024)

RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. Science and innovation in the education system, 2(2), 122-126.

18. Iminova D. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI BILISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Models and methods in modern science. – 2022. – T. 1. – №. 17. – C. 54-56.
19. Iminova D. N. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA MAKTAB O' RTASIDAGI HAMKORLIKNING AHAMIYATI //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 301-303.
20. Iminova D. N. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA MAKTAB O' RTASIDAGI HAMKORLIKNING AHAMIYATI //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 301-303.
21. <https://www.uzedu.uz/uz/services/26>
22. <https://www.dissercat.com/content/sotsialno-pedagogicheskoe-proektirovanie-nadomnogo-obucheniya-detei-s-ogranichennymi-vozmozh>